



ISSN: 2181-9416

1-SON, 2026

YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
eLIBRARY.RU

YURIST AXBOROTNOMASI

1-SON

ВЕСТНИК ЮРИСТА

HOMEPI 1

LAWYER HERALD

ISSUE 1

ABDURASULOVA Kumrinisa Raimkulovna

Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoyat huquqi, kriminologiya va
korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası
professori, yuridik fanlar doktori
E-mail: prof.abdurasulova@gmail.com

VOYAGA YETMAGAN SHAXSNI JINOYATNING SUBYEKTI DEB TOPISHNING ZARURIY BELGISI

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): ABDURASULOVA K.R.
Voyaga yetmagan shaxsni jinoyatning subyekti deb topishning zaruriy belgisi // Yurist
axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 1 (2026) B.99-110.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada jinoyat huquqida voyaga yetmagan shaxsni jinoyatning subyekti sifatida e'tirof etishning muhim va zaruriy belgisi bo'lgan yosh mezonini nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi jinoiy javobgarlik yoshini belgilashda shaxsning nafaqat kalendar yoshi, balki uning ruhiy, aqliy va ijtimoiy yetuklik darajasini ham hisobga olish zarurligini tadqiq etishdan iborat. Muallif jinoiy javobgarlik yoshini belgilovchi tibbiy-biologik, ijtimoiy-psixologik va huquqiy mezonlarning o'zaro uzviy bog'liqligini ochib bergan hamda ularning jinoyat subyekti tushunchasidagi ahamiyatini yoritgan. Maqolada O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi normalari asosida jinoiy javobgarlik yoshining umumiy va ayrim jinoyatlar uchun belgilangan maxsus chegaralari, shuningdek, voyaga yetmagan shaxslarning yoshini aniqlash tartibi va protsessual xususiyatlari tahlil qilingan. Qiyosiy-huquqiy tahlil orqali xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida jinoiy javobgarlik yoshi masalasiga bo'lgan yondashuvlar o'rganilib, ularning ijobiy jihatlari ko'rsatib berilgan. Maqolada voyaga yetmagan shaxsning o'z harakatlarining ijtimoiy xavfliligini anglash va ularni boshqarish qobiliyati jinoyat subyekti mavjudligini belgilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekani asoslangan. Tadqiqot natijalari asosida voyaga yetmaganlar jinoiy javobgarligini differentsiatsiya qilish va qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy xulosalarga kelingan.

Kalit so'zlar: jinoyat subyekti, voyaga yetmagan shaxs, jinoiy javobgarlik yoshi, yosh belgisi, aqli rasolik, ijtimoiy xavfli qilmish, jinoyat huquqi, jinoyat qonunchiligi, yoshni aniqlash, qiyosiy-huquqiy tahlil.

АБДУРАСУЛОВА Кумриниса Раимкуловна

Профессор кафедры Уголовного права,
криминологии и противодействия коррупции
Ташкентского государственного юридического
университета, доктор юридических наук
E-mail: prof.abdurasulova@gmail.com

ВОЗРАСТ КАК НЕОБХОДИМЫЙ ПРИЗНАК ПРИЗНАНИЯ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНЕГО СУБЪЕКТОМ ПРЕСТУПЛЕНИЯ

АННОТАЦИЯ

В данной статье с теоретической и практической точек зрения анализируется возрастной критерий как важнейший и необходимый признак признания несовершеннолетнего лица субъектом преступления в уголовном праве. Основной целью исследования является изучение необходимости учета при определении возраста уголовной ответственности не только календарного возраста лица, но и уровня его психической, интеллектуальной и социальной зрелости. Автор

раскрывает взаимосвязь медико-биологических, социально-психологических и правовых критериев, определяющих возраст уголовной ответственности, а также показывает их значение в формировании понятия субъекта преступления. В статье на основе норм Уголовного кодекса Республики Узбекистан анализируются общие возрастные пределы уголовной ответственности и специальные возрастные границы, установленные для отдельных составов преступлений, а также порядок и процессуальные особенности определения возраста несовершеннолетних лиц. Посредством сравнительно-правового анализа исследуются подходы зарубежных государств к решению вопроса возраста уголовной ответственности, выявляются их положительные стороны. Обосновывается, что способность несовершеннолетнего осознавать общественную опасность своих действий и управлять ими имеет решающее значение при признании его субъектом преступления. По результатам исследования сформулированы научные выводы, направленные на дифференциацию уголовной ответственности несовершеннолетних и совершенствование уголовного законодательства.

Ключевые слова: субъект преступления, несовершеннолетний, возраст уголовной ответственности, возрастной признак, вменяемость, общественно опасное деяние, уголовное право, уголовное законодательство, установление возраста, сравнительно-правовой анализ.

KUMRINISA Abdurasulova Raimkulovna

Professor of the Department of Criminal Law,
Criminology and Anti-corruption Tashkent State
University of Law, Doctor of Law,
E-mail: prof.abdurasulova@gmail.com

THE AGE AS A NECESSARY FEATURE FOR RECOGNIZING A MINOR AS THE SUBJECT OF A CRIME

ANNOTATION

This article analyzes, from both theoretical and practical perspectives, the age criterion as an essential and mandatory feature for recognizing a minor as the subject of a crime in criminal law. The main purpose of the study is to examine the necessity of taking into account not only the calendar age of a person, but also the level of their mental, intellectual, and social maturity when determining the age of criminal responsibility. The author reveals the close interrelation between medical-biological, socio-psychological, and legal criteria that determine the age of criminal responsibility and highlights their significance in shaping the concept of the subject of a crime. Based on the provisions of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan, the article analyzes the general age threshold of criminal responsibility as well as special age limits established for certain categories of crimes, along with the procedure and procedural features of determining the age of minors. Through comparative legal analysis, the approaches of foreign states to the issue of the age of criminal responsibility are examined, and their positive aspects are identified. The article substantiates that a minor's ability to understand the social danger of their actions and to control them is of decisive importance in determining the existence of the subject of a crime. Based on the research results, scientific conclusions are drawn aimed at differentiating the criminal liability of minors and improving criminal legislation.

Keywords: subject of a crime, minor, age of criminal responsibility, age criterion, sanity, socially dangerous act, criminal law, criminal legislation, determination of age, comparative legal analysis.

Insonning ma'lum ruhiy-fiziologik xususiyati uning yoshi bilan ham bog'liq bo'ladi. Qonunda jinoiy javobgarlik yoshining belgilanishi birinchi navbatda shu bilan izohlanadiki, bu holat shaxsning aqliy rivojlanishi, uning o'z harakatlari yuzasidan hisob berishi va ularni boshqarish qobiliyati bilan bog'liq, shuning uchun ham har bir muayyan holatlar shaxsning yoshini aniqlash jinoyat qonunida

nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni jinoyat subyekti, deb topish uchun zarurdir.

Ma'lum yoshga to'lganlik – shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishning zarur shartlaridan biri. Qonunda belgilangan yoshga to'lmagan shaxslar jinoyatning subyekti bo'la olmaydilar, chunki ular o'z harakatlarining ahamiyatini anglay olmaydilar va ularni ongli ravishda boshqara olmaydilar.

Qonunda jinoiy javobgarlik yoshini o'z ixtiyoriga qarab emas, balki inson ongi, uning o'z qilmishlari xususiyatini tushunishi, shuningdek, o'z harakatlarini boshqarish qobiliyatining rivojlanishidan kelib chiqib belgilangan.

Yosh deganda keng ma'noda inson tug'ilgan vaqtdan istalgan boshqa xronologik davrgacha o'tgan kalendar davri tushuniladi. So'zning tor ma'nosida, yosh shaxs ruhiy-fiziologik rivojlanishining shunday bir kalendar davriki, u bilan shaxs huquqiy holatining biologik, ijtimoiy-psixologik va huquqiy oqibatlari bog'liq bo'ladi.

Turli (biologik, psixologik, ijtimoiy, xronologik) mezonlarga qarab, yoshning quyidagi turlari farqlanadi: a) biologik (sinonimlari – funksional, tibbiy, morfologik) yosh; b) kalendar (sinonimlari – pasport, xronologik) yosh; v) ijtimoiy-huquqiy (sinonimlari normativ, ijtimoiy-psixologik, sotsiologik) yosh. Biologik yosh mazkur davr, aholi, jug'rofiy va iqtisodiy yashash sharoitlarida mana shu yoshdagi sog'lom odamlarning tegishli ko'rsatkichlariga taqqoslaganda, inson organizmi holati ko'rsatkichlarining majmui bilan tavsiflanadi. Yosh o'zgarishlarining biologik tafovutlari ma'lum odamlarning o'z yoshidan katta, boshqalarning esa – kichik ko'rinishida namoyon bo'ladi. Insonning kalendar yoshi tug'ilgandan boshlab muayyan vaqtgacha o'tgan vaqt bilan (yillar, oylar, kunlar, ba'zan esa – soatlarda) o'lchanadi. Kalendar yoshi ma'lum hollarda biologik yoshdan ortda qolishi (organizmning sust o'sishi), ma'lum hollarda esa – o'sishning tezlashib ketishi (erta qarish) mumkin[1]. Ijtimoiy-huquqiy yosh o'ziga xos ijtimoiy-psixologik o'zgarishlar, shaxsning ijtimoiylashishi darajasi, uning fuqaro sifatidagi huquq va majburiyatlarining hajmi va mazmuni, shaxsning jamiyat oldidagi mas'uliyatining mazmuni va xususiyati bilan tavsiflanadi. Fuqaroning yuridik huquq va majburiyatlarini ro'yobga chiqarish, uning javobgarligi hajmi va xususiyati, ya'ni shaxsning huquqiy maqomi yuqorida zikr etilgan yoshning xususiyatlari bilan bog'liq bo'ladi. Amaldagi qonunda quyidagi yoshlar: fuqarolik-huquqiy layoqat va javobgarlik yoshi; jinoiy javobgarlik yoshi; ma'muriy javobgarlik yoshi; mehnat qilish mumkin bo'lgan yosh; konstitutsiyaviy yosh; harbiy xizmatga chaqirish yoshi; nikoh yoshi; pensiya yoshi[2] nazarda tutilgan. Huquqning muayyan sohasida yoshning quyi chegarasini belgilashda ikki mezon: birinchidan, tartibga solinuvchi ijtimoiy munosabatlarning xususiyati va, ikkinchidan, shaxsning ijtimoiy darajasi e'tiborga olinadi.

Jinoiy javobgarlik yoshining quyi chegarasi qonun chiqaruvchi organ tomonidan tibbiy-biologik (jismoniy va ruhiy rivojlanish darajasi va h.k.), ijtimoiy-psixologik (shaxsning aqliy, irodaviy va emotsional xususiyatlarining rivojlanishi darajasi va h.k.), sotsiologik (shaxsning ijtimoiylashishi darajasi) mezonlarning jami, shuningdek kriminologik ko'rsatkichlar (masalan, mazkur yoshdagi odamlar orasida ushbu jinoyat turining tarqalganligi, uning og'irligi, ijtimoiy xavfliligi va h.k.), jinoyat huquqi prinsiplari (masalan, jinoyat-huquqiy taqiqni belgilashning maqsadga muvofiqligi) dan kelib chiqib belgilanadi.

Voyaga yetmagan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishda tibbiy-biologik mezonlar (jismoniy va ruhiy rivojlanish darajasi va h.k.) haqida so'z ketganida, aybdorning yoshini (tug'ilgan kuni, oyi, yilini) to'g'ri aniqlashga katta e'tibor beriladi.

Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlikni sodir etgan o'smirning yoshi O'zbekiston Respublikasi JPKning alohida ish yuritishga bag'ishlangan 60-bobi qoidalariga asosan aniqlanadi.

Bunga muvofiq, tergov va sud jinoiy javobgarlikka tortilayotgan voyaga yetmagan shaxsning tug'ilgan kuni, oyi va yilini aniqlashi shart. Bunda shaxs tug'ilgan kundan keyingi nol soatdan e'tiboran, ya'ni tug'ilgan kundan emas, balki keyingi kundan boshlab ma'lum yoshga to'lgan deb hisoblanadi [3].

Shaxs o'n olti yoshga (yoki o'n to'rt yoshga) to'lgan kunda sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishlarga jinoyat deb qaralishi va uni sodir etgan shaxs jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Odatda shaxsning yoshi tegishli hujjat (pasport, tug'ilganlik to'g'risida guvohnoma va boshqalar)ga asosan juda oson aniqlanadi. Agar yosh to'g'risida hujjat mavjud bo'lmasa, boshqa dalillardan foydalaniladi. Bunda sud-tibbiyot ekspertizasi o'tkazilishi ham mumkin. "Sud-tibbiyot ekspertizasi tomonidan yoshni aniqlashda ekspertlar xulosasida qayd etilgan yilning oxirgi kuni, ya'ni 31-dekabrni sudlanuvchining tug'ilgan kuni deb hisoblash zarur, yoshni minimal va maksimal yillar soni bilan aniqlashda sud ekspertizada taxmin qilingan shaxsning minimal yoshidan kelib chiqishi lozim" [4].

Voyaga yetmagan va voyaga yetgan shaxsning yoshini tasdiqlovchi hujjatlar bo'lmagan taqdirda, uning yoshi sud-tibbiyot ekspertizasi yordamida aniqlanadi. Bu holda ekspertiza xulosasida belgilangan yilning oxirgi kuni jinoiy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning tug'ilgan kuni deb topiladi. Voyaga yetmagan shaxsning aqli zaifligidan dalolat beruvchi ma'lumotlar bo'lgan taqdirda, sud jinoyat-protsessual qonun talablariga muvofiq, voyaga yetmagan shaxsning aqli zaifligi darajasini, u o'z harakatlarining ahamiyatini qay darajada anglashi va boshqara olishi mumkinligini aniqlashi lozim [5]. O'zbekiston Respublikasi JPKning 73-moddasiga muvofiq, ish bo'yicha yuqorida zikr etilgan holatlarni aniqlash talab etilgan taqdirda, bolalar va o'smirlar psixologiyasi mutaxassislari (psixolog-pedagoglar) tomonidan ekspertiza o'tkazilishi lozim yoki mazkur masalalar ekspert-psixiatr tomonidan hal qilinishi mumkin. Voyaga yetmagan shaxsning aqli zaifligi aniqlangan taqdirda, u sodir etgan jinoyatning ijtimoiy xavfliligi xususiyatidan kelib chiqib, sud, JKning 87-moddasiga muvofiq, tarbiyaviy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash bilan cheklanishi mumkin.

Jinoiy javobgarlik yoshining quyi chegarasi qonunda ikki usul orqali tartibga solinishi mumkin: barcha jinoyatlarga nisbatan amal qiladigan umumiy norma ko'rinishida yoki umumiy norma bilan bir qatorda, jinoyatlarning ma'lum doirasiga nisbatan amal qiladigan jinoiy javobgarlikning yosh chegaralarini nazarda tutadigan maxsus norma qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat qonunchiligida ikkala usuldan ham foydalaniladi.

O'zbekiston Respublikasi JK 17-moddasi 1-qismiga muvofiq, jinoyat sodir etgunga qadar o'n olti yoshga to'lgan shaxslar jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

O'zbekiston Respublikasi JK 17-moddasi 2-qismiga muvofiq, jinoyat sodir etgunga qadar o'n to'rt yoshga to'lgan shaxslar ushbu Kodeks 97-modda (qasddan odam o'ldirish), 98-moddasi (kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish), 104-106-moddalari (qasddan badanga og'ir shikast yetkazish; qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish; kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan badanga og'ir va o'rtacha og'ir shikast yetkazish), 118-moddasi (nomusga tegish), 119-moddasi (jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib, g'ayritabiiy usulda qondirish), 126¹-moddaning 4-8-qismlari (oilaviy (maishiy) zo'ravonlik), 137-moddasi (odam o'g'irlash), 164-166-moddalari (bosqinchilik; talonchilik; tovlamachilik), 169-moddasi (o'g'irlik), 173-moddasining 2 va 3-qismlari (mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish), 220-moddasi (ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish joylarining ishini izdan chiqaruvchi harakatlar), 222-moddasi (ozodlikdan mahrum qilish joylaridan qochish), 247-moddasi (o'qotar qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallash), 252-moddasi (radioaktiv materiallarni

qonunga xilof ravishda egallash), 263-moddasi (temir yo'l, dengiz, daryo, havo transporti vositasi yoki aloqa yo'llarini yaroqsiz holatga keltirish), 267-moddasi (transport vositasini olib qochish), 271-moddasi (giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallash), 277-moddasi 2 va 3-qismlari (bezorilik)da nazarda tutilgan jinoyatlar uchun javobgarlikka tortiladilar.

Ushbu Kodeksning 122-moddasi (voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash), 123-moddasi (ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash), 127-moddasi (voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish), 144-moddasi (fuqarolarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish), 146-moddasi (saylov yoki referendum tashkil qilish, ularni o'tkazish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish), 193-195-moddalari (ekologiya xavfsizligiga oid normalar va talablarni buzish; atrof tabiiy muhitning ifloslanganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni qasddan yashirish yoki buzib ko'rsatish; atrof tabiiy muhitning ifloslanishi oqibatlarini bartaraf qilish choralarini ko'rmaslik), 205-210-moddalari (hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish; hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish; mansabga sovuqqonlik bilan qarash; hokimiyat harakatsizligi; mansab soxtakorligi; pora olish), 225-moddasi (harbiy yoki muqobil xizmatdan bo'yin tovlash), 226-moddasi (ma'muriy nazorat qoidalarini buzish), 230-232-moddalari (aybsiz kishini javobgarlikka tortish; adolatsiz hukm, hal qiluv qarori, ajrim yoki qaror chiqarish; sud qarorini bajarmaslik), 234-moddasi (qonunga xilof ravishda ushlab turish yoki hibsga olish), 235-moddasi (ko'rsatuv berishga majbur qilish), 279-302-moddalari (bo'ysunmaslik; buyruqni bajarmaslik; boshliqqa qarshilik ko'rsatish yoki uni xizmat vazifalarini buzishga majbur qilish; boshliqni qo'rqitish; badanga shikast yetkazish; bo'ysunuvchining o'z boshlig'ini yoki boshliqning o'ziga bo'ysunuvchini haqorat qilishi; bir-biriga tobe bo'lmagan harbiy xizmatchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga oid ustav qoidalarini buzish; marodiyorlik; harbiy qism yoki xizmat joyini o'zboshimchalik bilan tashlab ketish; dezertirlik; halok bo'layotgan harbiy kemani tashlab ketish; o'zining biron a'zosini mayib qilish yo'li bilan yoki boshqa usulda harbiy xizmatdan bo'yin tovlash; qorovul xizmatini o'tash qoidalarini buzish; ichki xizmatni o'tash yoki garnizonda patrullik qilish qoidalarini buzish; jangovar navbatchilikni o'tash qoidalarini buzish; chegara xizmatini o'tash qoidalarini buzish; harbiy mulkni behuda sarflash, yo'qotish yoki ishdan chiqarish; harbiy mulkni nobud qilish yoki unga shikast yetkazish; atrofdagilar uchun katta xavf manbai bo'lgan qurol-yarog', shuningdek, modda va buyumlar bilan muomalada bo'lish qoidalarini buzish; mashinalarni boshqarish yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzish; uchish yoki uchishga tayyorgarlik ko'rish qoidalarini buzish; kemani boshqarish qoidalarini buzish; hokimiyatni suiiste'mol qilish, hokimiyat vakolatidan tashqariga chiqish yoki hokimiyat harakatsizligi; xizmatga sovuqqonlik bilan qarash) nazarda tutilgan jinoyatlar uchun jinoyat sodir etilgunga qadar o'n sakkiz yoshga to'lgan shaxslar javobgarlikka tortiladilar.

Jinoyat sodir etgunga qadar o'n olti yoshga to'lgan shaxs ma'lum hayot tajribasiga, o'z qilmishlarining ahamiyatini anglash va xulq-atvorini tartibga solish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'n olti yoshga to'lgan o'smir sog'lom aql-idrok asosida harakat qilishga, o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglashga va ularning oqibatlarini tushunishga qodirdir.

Jinoiy javobgarlik yoshini belgilash uchun bo'lib, voyaga yetmagan shaxsning ongliligi darajasi, uning sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni anglash va shunga muvofiq ongli harakat qilish qobiliyati xizmat qiladi. Shuning uchun ham bunday qobiliyatga ega bo'lmagan o'smirlar jinoyat subyekti deb topilmaydi. O'z xulq-atvorining xavfliligini anglash qobiliyati asta-sekin, tarbiya va hayotiy kuzatishlar natijasida shakllanadi. Ba'zi bir qilmishlarning ijtimoiy xavfliligini o'smir ota-onasi, tarbiyachilari va boshqa kattalarning o'g'irlik qilmaslik, boshqalarga ozor yetkazmaslik, urishmaslik kerak degan va boshqa shunga o'xshash o'gitlariga qarab tushunib boradi. Bunday

foydali maslahatlar o'smirlarga o'g'rilik, bezorilik, odam o'ldirish singari jinoyatlarning xavfliligini anglab yetish imkonini beradi.

Voyaga yetmaganlarning 14 yoshdan boshlab jinoiy javobgarlikka tortilishi shu bilan izohlanadiki, bu yoshda ular shaxsga, o'zganing mulkiga va jamoat tartibiga daxl etish bilan bog'liq jinoyat huquqiy taqiqlarni yaxshi anglaydilar.

Huquqshunoslarning ma'lum qismi jinoyat qonunida o'n to'rt yoshdan boshlab jinoiy javobgarlik eng og'ir jinoyatlar uchun belgilangan, deb hisoblaydilar. Bu qarashni to'g'ri deb bo'lmaydi: birinchidan, O'zbekiston Respublikasi JK 17-moddasi 2-qismida zikr etilgan jinoyatlarning aksariyati og'ir va hatto o'ta og'ir jinoyatlar toifasiga kirsada, bu ustuvor ahamiyatga ega emas. Bir qator og'ir jinoyatlar JK 17-moddasi 3-qismida ko'rsatilgan jinoyatlar qatoriga kiritilmagan va ular uchun shaxs 16 yoshdan boshlab jinoiy javobgarlikka tortiladi; ikkinchidan, JK 17-moddasi 2-qismida ko'rsatilgan jinoyatlarning aksariyat qismi, masalan, O'zbekiston Respublikasi JKning 242, 243-moddalari og'ir jinoyatlar toifasiga umuman kirmaydi; uchinchidan, mazkur ro'yxatga faqat qasddan sodir etilgan jinoyatlar kiritilgan, degan qarash ham noto'g'ri, chunki yuqorida zikr etilgan ro'yxatda ehtiyotsizlik tufayli sodir etiladigan jinoyatlar, masalan, ehtiyotsizlik orqasida odam o'ldirish (JK 102-moddasi) ham bor.

O'zbekiston Respublikasi JK 17-moddasi 2-qismida sanab o'tilgan jinoyatlar uchun o'n to'rt yoshga to'lgan shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilishini faqat shu bilan izohlash mumkinki, jinoyat qonuni mazkur qismga faqat yuqorida zikr etilgan shaxslarning o'zi sodir etgan harakatlarning ijtimoiy xavfliligini anglashga qodir bo'lganligi asos qilib olingan. Mutaxassislar va qonun chiqaruvchi organning fikriga ko'ra, o'n to'rt yoshga to'lgan shaxs yuqorida zikr etilgan jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi va ahamiyatini tushunishga qodir bo'ladi. JK 17-moddasi 2-qismida og'ir jinoyatlarning (qasddan odam o'ldirish va badanga og'ir shikast yetkazish, nomusga tegish, ashaddiy yoki o'ta ashaddiy bezorilik, o'qotar qurollar va giyohvandlik vositalarini egallash, bosqinchilik, talonchilik va javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarda o'g'rilik sodir etish) ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori bo'lganligi tufayli emas, balki ularning xavfligi o'smirlarga tushunarli bo'lganligi sababli ro'yxatga kiritilgan. Ro'yxatga bezorilikning asosiy tarkibi (277-moddasi 1-qismi) kiritilmaganligini faqat shu bilan izohlash mumkinki, 14-15 yashar o'smir oddiy bezorilikni sho'xlikdan farq qilishga qodir bo'lmaydi. Oddiy bezorilikka xos bo'lgan jamoat joyida so'kinish, mushtlashish turli xil zo'rlik ishlatishni o'smirlar ba'zan o'zini ko'rsatishning bir usuli, deb qaraydilar, o'smir o'ziga bolaligidan singdirilgan taqiqlarni ongli ravishda buzadi.

Qonun chiqaruvchi jinoiy javobgarlik yoshini belgilar ekan, mazkur yoshga to'lgan voyaga yetmagan shaxs o'z qilmishining ahamiyatini anglashga va shunga qarab ongli harakat qilishga qodir ekanligini nazarda tutadi. Voyaga yetmagan shaxs o'z ijtimoiy xavfli qilmishining ahamiyatini anglab, harakatlari yuzasidan o'ziga hisob berib va ularni boshqaribgina qolmasdan, qilmishning qonunda taqiqlanganligini ham tushunishi mumkin, degan qarash mavjud[6]. Ammo, 16 yoshga to'lmagan o'smirning o'z xulq-atvorining ijtimoiy xavfliligini anglashi va uni to'liq boshqarish imkonini beradigan darajada rivojlanganligi sinchiklab tekshirilishi lozim.

O'z xulq-atvorini ijtimoiy xavfli deb baholash imkoniyati o'smirning ma'lum hayotiy tajriba orttirishi bunday tajribaning shakllanishi yoki ijtimoiy tajribani o'zlashtirishi, ya'ni ijtimoiylashish jarayoni bilan bog'liq bo'ladi. Shaxsning ijtimoiylashishi – "insonning o'zini qurshab turgan ijtimoiy muhitdagi odat va qadriyatlarni o'zlashtirishi, insonning ijtimoiy muhitga qo'shilishi... inson shaxsining shakllanishi jarayoni" [7] dir. Ammo, 16 yoshga to'lgan o'smirning ijtimoiy rivojlanishning ma'lum darajasiga yetganligi prezumpsiyasi sinchiklab tekshirilishi lozim, degan qarashni ilgari surishga turtki beruvchi bir nechta muhim holatlarni qayd etib o'tish zarur.

Birinchidan, ijtimoiy normalar va qadriyatlarni idrok etish va o'zlashtirish insonning ijtimoiy

munosabatlar tizimidagi ma'lum o'rni bilan bog'liqligi yuridik adabiyotlarda qayd etilgan [8]. Ijtimoiy munosabatlar tizimida o'smirlarning o'rni hali uzil-kesil belgilanmagan, ular jamiyatning ijtimoiy tuzilmasiga hali to'liq qo'shilmagan bo'ladi. Shuning uchun ham ular umume'tirof etilmagan qadriyatlar tizimini o'zlashtiradilar va o'z xulq-atvorida unga amal qiladilar, pirovard natijada bu ularni ba'zan g'ayriqonuniy qilmish sodir etishga olib keladi [9].

Ikkinchidan, "javobgarlikni rasman tushunish va xulq-atvor normalarini bilish o'smirning qilmishni sodir etayotganida jamiyatda belgilangan umumiy qoidalarga rioya qilishini kafolatlamaydi" [10]. O'smir o'z qilmishining ahamiyati, uning oqibatlari haqida o'ylashga, tasavvur qilishga qodir emas. Bundan tashqari, o'smirlar jinoyatlarni ko'pincha guruh tarkibida va dalolatchining ta'sirida sodir etadilar. O'smir "hamma qatori" ish tutadi va bu uni jinoyatga olib keladi [11]. O'smir o'zlashtirgan ijtimoiy qadriyatlar va normalar, hatto o'z qilmishining ijtimoiy xavfliligini anglashi ham o'z harakatlarini boshqarishi uchun yetarli bo'lmaydi.

Uchinchidan, o'smirning rivojlanish xususiyatlari ham uning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Jadal jismoniy rivojlanish doim ham jadal ruhiy o'sish bilan birga kechmaydi. Bu voyaga yetmagan shaxs yashaydigan oilaning ijtimoiy beqarorligi, yaxshi tarbiya berilmaganligi, uzoq vaqt somatik kasalliklar bilan og'rikanligi va h.k. bilan izohlanadi. G.I. Kurbatovanning fikriga ko'ra, alkogoliklarning farzandlari ko'pincha ruhiy beqarorligi yoki hatto aqli zaifligi bilan tavsiflanadi va "birov (ba'zan, jinoyatchi)ning ta'siriga oson beriladi" [12]. Tug'ma yoki ilk bolalik davrida orttirilgan asab kasalliklari asosida, tashqi salbiy omillar ta'sirida "shaxsning tafakkuri nisbatan barqaror bo'lgani holda, uning sezgi va iroda xossalarining... nomutanosibliigi" bilan tavsiflanadigan psixopatiyalar shakllanadi [13]. To'g'ri, o'smirlikda faqat shaxsning psixopatik jihatlari haqida gapirish mumkin, chunki psixopatiya o'smirlik davrining oxiriga borib va hatto ancha keyin uzil-kesil shakllanadi [14].

Yuqorida bayon etilgan qarashlar jinoyat sodir etgan o'smirlarni javobgarlikka tortish shartlarini yanada chuqurroq differentsiatsiya qilish va ularga nisbatan tayinlanadigan jazolarni individuallashtirish zarurligini belgilaydi.

Jinoiy javobgarlik yoshi masalasi turli jinoyat-huquqiy tizimlarda har xil hal qilinadi. Jumladan, Oktabr to'ntarishidan oldingi davrda Rossiyada 1845-yilgi Jinoiy va tarbiyaviy jazolar to'g'risidagi Nizomda "yetti yoshga to'lmagan bolalar" jinoyat uchun javobgarlikka tortilmasligi belgilangan; ular ota-onalari, vasiylari yoki qarindoshlari ixtiyoriga tarbiyalab yo'lga solish uchun topshirilgan (94-moddasi). 1903-yilgi Jinoyat nizomida mazkur masala nisbatan mufassal hal qilingan. Uning 40-moddasida jinoyat sodir etgunga qadar o'n yoshga to'lgan shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilishi nazarda tutilgan, ammo o'n-o'n yetti yashar o'smirlar ota-onalari yoki vasiylarining nazoratiga berilgan, og'ir jinoyat sodir etgan taqdirda esa, axloq tuzatish-tarbiya muassasalariga joylashtirilgan [15].

Sovet davrida jinoiy javobgarlik yoshi turlicha bo'lib: o'n yetti yosh (1918-yil), o'n olti yosh va, agar tibbiy-tarbiyaviy yo'sindagi choralar bilan kifoyalanish mumkin bo'lmasa – o'n to'rt yosh (RSFSRning 1922- va 1926-yilgi Jinoyat kodekslari). Ammo, SSSR MIK va XKSning 1935-yil 7-aprel qaroriga muvofiq, "voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini tugatishni tezlashtirish maqsadida", o'g'rilik, zo'ravonlik, badanga shikast yetkazish, odam o'ldirish yoki odam o'ldirishga suiqasdni sodir etgan o'smirlarni o'n ikki yoshdan boshlab javobgarlikka tortish belgilangan [16], so'ng esa (1941 yilda) "shuningdek bu jinoyatlar ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan bo'lsa", degan qo'shimcha kiritilgan [17] edi.

Rossiya Federatsiyasining amaldagi Jinoyat kodeksiga muvofiq, jinoyat sodir etgunga qadar o'n olti yoshga to'lgan shaxslar javobgarlikka tortiladilar (RF JK 20-moddasi 1-qismi). JK 20-moddasi 2-qismida 14 yoshdan boshlab javobgarlikka tortiladigan jinoyatlar ro'yxati keltirilgan. Bunday

jinoyatlar jumlasiga quyidagilar kiradi: odam o'ldirish (105-modda), qasddan badanga og'ir va o'rtacha og'ir shikast yetkazish (111 va 112-moddalar), odam o'g'irlash (126-modda), nomusga tegish (131-modda), jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib qondirish (132-modda), o'g'rilik (158-modda), talonchilik (161-modda), bosqinchilik (162-modda), tovlamachilik (163-modda), avtomobil yoki boshqa transport vositasini o'g'rilik maqsadisiz g'ayriqonuniy egallash (166-modda), og'irlashtiradigan holatlarda mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish (167-moddaning 2-qismi); terrorizm (205-modda), shaxsni garovga olish (206-modda), terrorizm akti haqida bila turib yolg'on ma'lumot berish (207-modda), og'irlashtiradigan holatlarda bezorilik (213-moddaning 2 va 3-qismlari), vandalizm (214-modda), qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar va portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallash yoki tovlamachilik yo'li bilan berishni talab qilish (226-modda), giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallash yoki tovlamachilik yo'li bilan berishni talab qilish (229-modda), transport vositalari yoki aloqa yo'llarini yaroqsiz holatga keltirish (267-modda).

Rossiya jinoyat huquqida subyektning yosh alomatiga hamisha tabaqalashtirish asosida yondashilgan va jinoiy javobgarlik yoshining quyi chegarasi belgilangan. Bu chegara 12-17 yosh atrofida bo'lgan. 1960-yilgi RF Jinoyat kodeksining 10-moddasida mazkur prinsip saqlangan va subyektning ikkita yosh alomati ko'rsatilgan: barcha jinoyat turlari uchun o'n olti yoshdan, ba'zi bir jinoyatlar uchun esa – o'n to'rt yoshdan boshlab javobgarlik belgilangan. JK 10-moddasining ikkinchi qismida o'n to'rt yoshdan boshlab javobgarlikka tortish nazarda tutilgan jinoyatlar ro'yxati keltirilgan.

RFning 1996-yilgi JK jinoiy javobgarlik yoshini differensiatsiya qilish prinsipi mustahkamlanib, o'n to'rt yoshdan boshlab javobgarlikka tortish nazarda tutilgan jinoyatlar ro'yxatiga jiddiy tuzatishlar kiritildi. Bu ro'yxat, 1960-yilgi JKdagi ro'yxatga taqqoslaganda, ancha toraydi: ehtiyotsizlik orqasida odam o'ldirish, kuchli ruhiy hayajonlanish holatida yoki zaruriy mudofaa doirasidan chetga chiqib odam o'ldirish, jazoni yengillashtiradigan holatlarda badanga og'ir va o'rtacha og'ir shikast yetkazish, alohida qimmatga ega bo'lgan buyumlarni o'g'irlash, firibgarlik uchun jinoiy javobgarlik chiqarib tashlandi. Ammo, JK 20-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan ro'yxatga ikkita yangi jinoyat: jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib qondirish va vandalizm kiritildi [18].

Ozarbayjon Respublikasi JK 10-moddasining 1-qismiga muvofiq, jinoyat sodir etgunga qadar o'n olti yoshga to'lgan shaxslar jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

Ozarbayjon Respublikasi JK 10-moddasining 2-qismiga muvofiq, jinoyat sodir etgunga qadar o'n to'rt-o'n olti yoshga to'lgan shaxslar faqat odam o'ldirish (JKning 94-99-moddalari), qasddan badanga shikast yetkazilishi natijasida salomatlikning buzilishi (102-105-moddalar; 106-moddaning birinchi qismi; 108-moddaning ikkinchi qismi); nomusga tegish (109-modda), o'g'rilik (93-3-modda), talonchilik (93-4 modda); bosqinchilik (93-5 modda); tovlamachilik (93-6-modda), ashaddiy yoki o'ta ashaddiy bezorilik (207-moddaning ikkinchi va uchinchi qismlari); jazoni og'irlashtiradigan holatlarda mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish (93-9-moddaning ikkinchi va uchinchi qismlari); o'qotar qurol, o'q-dorilar yoki portlovchi moddalarni qonunga xilof ravishda egallash (220-1-modda); giyohvandlik vositalarini egallash (226-2-modda); aloqa yo'llari va transport vositalariga shikast yetkazish (79-modda) hamda terrorizm (212-3-modda) uchun javobgarlikka tortiladilar.

Xitoy Xalq Respublikasi JKning 11-moddasiga muvofiq, jinoyat sodir etgunga qadar o'n olti yoshga to'lgan shaxslar jinoiy javobgarlikka tortiladilar. Ayrim jinoyatlar uchun esa shaxslar hatto 14 yoshdan boshlab jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin [19].

Turkiya jazo qonunining 54-moddasiga muvofiq, 11-15 yashar shaxslar, agar ular o'zi sodir etgan qilmishning ijtimoiy xavfli xususiyatini anglay olmasalar, jinoiy javobgarlikka tortilmaydilar.

Ammo, mazkur (11-15 yashar) shaxslar o'zi sodir etgan qilmishning ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan bo'lsalar, jinoyat subyekti deb topiladilar va ularga jazo tayinlashda mazkur holatga javobgarlikni yengillashtiruvchi holat deb qaraladi. Bunday hollarda, agar modda sanksiyasida o'lim jazosi nazarda tutilgan bo'lsa, u 15 yildan ortiq muddatga qamoq jazosi bilan almashtirilishi, umrbod ozodlikdan mahrum qilish o'rniga 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi lozim. Sodir etilgan boshqa jinoyatlar uchun jazo muddati yarmiga qisqartiriladi. So'nggi holda sud tomonidan tayinlanuvchi jazo muddati 7 yildan oshmasligi kerak.

Turkiya jazo qonuniga muvofiq, voyaga yetmagan 15-18 yashar shaxslarga quyidagi jazo choralari qo'llanilishi mumkin:

- o'lim jazosi o'rniga – 20 yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish;
- umrbod ozodlikdan mahrum qilish o'rniga – 15 yildan yilgacha ozodlikdan mahrum qilish;
- sodir etilgan boshqa jinoyatlar uchun jazo uchdan birga qisqartiriladi.

Turkiya Jinoyat qonunining 58-moddasiga muvofiq, 15 yoshga to'lmagan kar va soqov shaxslar jinoyat subyekti deb topilishi mumkin emas. Jinoyat sodir etgan 15-24 yashar kar va soqov shaxslar davlatning maxsus tarbiya muassasalariga joylashtiriladi va ularga nisbatan jinoiy jazo hisoblanmaydigan tarbiyaviy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanadi [20].

Fransiyaning amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq, jinoyat sodir etgunga qadar o'n uch yoshga to'lgan shaxslar javobgarlikka tortiladilar; ilgari yetti yoshga to'lgan shaxslar ham javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lgan. Fransiyaning 1810-yilgi Jinoyat kodeksi voyaga yetmagan har bir sudlanuvchining ishini ko'rishda u o'z qilmishining ahamiyatini "tushunib" yoki "tushunmasdan" harakat qilganligi masalasini ko'rib chiqishni nazarda tutilgan. Agar voyaga yetmagan shaxs "tushunmasdan" harakat qilgan bo'lsa, u oqlanishi lozim bo'lgan, ammo sud uni ota-onasining nazorati ostiga topshirishi yoki uni sudlanuvchi voyaga yetgunga qadar bo'lgan vaqtdan oshmaydigan muddatga axloq tuzatish manziliga joylashtirishi ham mumkin bo'lgan. O'z qilmishining ahamiyatini "tushunib" harakat qilgan o'smir esa jazolanishi lozim bo'lgan, ammo uning voyaga yetmaganligi jazoni yengillashtiruvchi holat hisoblangan. Fransiya voyaga yetmaganlarni javobgarlikka tortishning mazkur tartibi faqat ikkinchi jahon urushidan keyin o'zgartirildi.

Angliyada jinoyat sodir etgunga qadar 8 yoshga, Gretsiyada – 13 yoshga, Shvetsiyada – 15 yoshga, Finlyandiyada – 16 yoshga, Misrda – 7 yoshga, Livanda – 7 yoshga, Iroqda – 7 yoshga, Isroilda – 9 yoshga, Eronda – 11 yoshga, AQShda – 7 yoshga to'lgan shaxslar javobgarlikka tortiladilar.

AQShda bolalar jinoyatchiligi haddan tashqari ko'payganligi natijasida, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga qarshi kurashning samaradorligini oshirish maqsadida, jahonda birinchi bo'lib voyaga yetmaganlarning sudlari (yuvnal yustitsiya) tashkil etildi. Mazkur maxsus sudlar dastlab Chikago (1889-yil) va Nyu-Yorkda (1901-yil) tashkil qilindi. Mazkur amaliyotdan ruhlanib, ko'p o'tmay butun mamlakat voyaga yetmaganlarning sudlari tarmog'i bilan qoplandi. Bunday sudlarda 17 yoshgacha, ba'zi bir shtatlarda – 18 va 19 yoshgacha, Arkanzas shtatida esa – 21 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan jinoyatchilarning ishlari ko'rilar edi.

Jinoiy javobgarlik yoshi masalasi sovet jinoyat qonunchiligida ham har xil hal qilingan. SSSR – federativ tuzilishga ega bo'lgan davlat tashkil topishi bilan jinoyat qonunchiligi sohasida ham tegishli o'zgarishlar sodir bo'ldi – SSSR va ittifoqdosh respublikalar jinoyat qonunchiligining Asoslari qabul qilindi.

O'zSSRning 1926-yilgi Jinoyat kodeksida "Asoslar"dagi jinoiy javobgarlik yoshi (14 yosh) dastlabki hibsga olish vaqtini hisobga qo'shish tartibi, ittifoqdosh respublikaning sud organlari tomonidan hukm etilgan shaxslarga nisbatan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilishni qo'llashning shartlari va tartibi to'g'risidagi ko'rsatmasi ro'yobga chiqarildi.

Jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan yosh (14 yoshdan boshlab) JK 14-moddasida

belgilandi. Ammo 1935-yil 7-aprelda bu yosh chegarasini 12 yoshga tushirgan "Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilikka qarshi kurash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qonun qabul qilinishi bilan "Asoslar"ning ittifoqdosh respublikalarga jinoiy javobgarlik yoshini belgilash huquqini beruvchi 8-moddasi bekor qilindi. Shu bilan bir vaqtda 1926-yilgi O'zSSR Jinoyat kodeksining 14-moddasi ham bekor qilindi.

Yuqorida zikr etilgan qonunga muvofiq o'g'rilik, odam o'ldirish, odam o'ldirishga urinish, zo'rlik ishlatish, badanga shikast yetkazish jinoyatlarini sodir etgan shaxslar 12 yoshdan boshlab jinoiy javobgarlikka tortilar edi.

Sovet jinoyat huquqi kursining mualliflari qayd etishicha, "Alohida jinoyatlarni sodir etganlik uchun o'smirlarni 12 yoshdan boshlab jinoiy javobgarlikka tortish tartibining joriy etilishiga o'sha davrda hukm surgan majburlovga jinoyatchilikka qarshi kurashning universal vositasi sifatida qarash turtki bo'ldi" [21].

O'zSSR va boshqa ittifoqdosh respublikalar jinoyat kodekslari amalda bo'lgan 1926-27-yillarda ularning Umumiy va Maxsus qismlari normalariga jiddiy o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Jumladan, surgun va badarg'a qilish haqida batafsil ko'rsatmalar ifodalangan (O'zSSR Markaziy ijroiya qo'mitasi 1931-yil 30-sentabr qarori bilan amalga kiritgan tahrirdagi) O'zSSR JK 38-moddasida [22] bu jazo choralari qo'llashni cheklovchi shartlar belgilab qo'yildi va JKning surgun qilish jazosini qo'llash mumkin bo'lgan moddalari aniq ko'rsatib berildi. Yoki bo'lmasa, Butunittifoq markaziy ijroiya qo'mitasi va RSFSR Xalq komissarlar sovetining 1929-yil 30-oktabr qarori bilan jinoiy javobgarlik yoshi oshirildi. Ushbu qarorga muvofiq, 1926-yilgi RSFSR JK 12-moddasining yangi tahririda jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoiy javobgarlik faqat 16 yoshdan boshlab qo'llanishi mumkinligi belgilandi.

Ammo jinoyat qonun hujjatlariga kiritilgan bu o'zgartish va qo'shimchalarda jamiyat hayotida sodir bo'lgan tub o'zgarishlar to'la hisobga olinmagan edi.

Jinoyat kodeksi loyihasini davriy matbuot sahifalarida muhokama qilish paytida deyarli barcha mualliflar jinoiy javobgarlik yoshini har xil qilib belgilash uchun jiddiy asoslar yo'qligini qayd etib o'tdilar [23]. Jinoyat qonun hujjatlari asoslari va 1959-yilgi O'zSSR Jinoyat kodeksi shu tariqa voyaga yetmaganlarning jinoiy javobgarligi prinsipini tikladi va jinoiy javobgarlik yoshini ikki yoshga ko'tardi, ya'ni 16 yosh deb belgiladi. Jinoyat qonun hujjatlari asoslarining 10-moddasida keltirilgan alohida jinoyatlar Ro'yxati (shu jumladan o'g'rilik) uchun, o'smirlar rivojlanishining obyektiv qonuniyatlari tahlilidan kelib chiqib, jinoiy javobgarlik yoshi 14 deb belgilandi.

Agar ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat sodir etilgan va voyaga yetmagan shaxsni jazolamasdan ham axloqan tuzalishi mumkin deb topilgan bo'lsa, tarbiyaviy choralar 18 yoshga to'lmagan har bir o'smirlarga nisbatan qo'llanishi mumkin edi.

Yuqorida aytilganlarga yana shuni qo'shimcha qilishni istar edikki, ittifoqdosh respublikalarning ayrim jinoyat kodekslarida, Jinoyat qonun hujjatlari Asoslarining qoidalariga zid o'laroq, jinoiy javobgarlik yoshi haqidagi moddaga o'zgartishlar kiritildi. Vaholanki, respublika qonun hujjatlari ittifoq qonun hujjatlariga to'la mos kelishi lozim edi. Afsuski, to'qqiz ittifoqdosh respublikaning jinoyat kodekslari onaning o'z chaqalog'ini o'ldirganligi uchun jinoiy javobgarlik yoshini belgilashda bu qoidadan chekindi. O'zSSR JK bu normadan tashqari zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib sodir etilgan odam o'ldirish va badanga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish jinoyatlariga nisbatan ham shunga o'xshash o'zgartishlar kiritdi.

Bu o'rinda bir qator jinoyatlar uchun shaxs harakatlarining xususiyatiga qarab, jinoiy javobgarlikka nisbatan katta yoshda tortilishi mumkinligini ham qayd etib o'tish lozim. Jumladan, voyaga yetmaganlarni jinoiy yoki boshqa g'ayriijtimoiy faoliyatga jalb qilgan voyaga yetgan shaxs jinoyatning subyekti bo'lishi mumkin, shuningdek, faqat 18 yoshga to'lgan shaxs harbiy

jinoyslarnlng subyekti bo'lishi mumkin. Kema kapitani, vrach, mansabdor shaxs kabi subyektlarga ham nisbatan 18 yoshga to'lganlik talab qilinadi.

Bizningcha, o'n to'rt yoshdan boshlab javobgarlik nazarda tutilgan jinoyslarn ro'yxatiga quyidagi jinoyslarn ham kiritilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi: qo'poruvchilik; terrorizm; shaxsni garovga olish.

Shunday qilib, olib borilgan tadqiqotlarning jinoyslarn subyekti tushunchasi, alomatlari va yoshi masalalariga doir natijalari quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi.

Jinoyslarn huquqiga asosan, jinoyslarnning subyekti ikki asosiy alomatga ega bo'lishi lozim:

1) jinoyslarn sodir etgan vaqtida aqli raso bo'lganligi;

2) jinoyslarn sodir etgunga qadar qonunga muvofiq qilmishi uchun jinoiyl javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan yosh, ya'ni o'n olti yoshga to'lgan shaxs jinoyslarn subyekti deb topilishi mumkin.

Jinoyslarn sodir etgunga qadar o'n to'rt yoshga to'lgan shaxslarn qasddan odam o'ldirish; kuchli ruhiyl hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish; qasddan badanga og'ir shikast yetkazish; qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish; kuchli ruhiyl hayajonlanish holatida qasddan badanga og'ir va o'rtacha og'ir shikast yetkazish; nomusga tegish; jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiyl usulda qondirish; odam o'g'irlash; bosqinchilik; talonchilik; tovlamachilik; o'g'rilik; mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish; ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish joylarning ishini izdan chiqaruvchi harakatlarn; ozodlikdan mahrum qilish joylaridan qochish; o'qotar qurol, o'q-dorilarn, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallash; radioaktiv materiallarni qonunga xilof ravishda egallash; temir yo'l, dengiz, daryo, havo transporti vositasi yoki aloqa yo'llarini yaroqsiz holatga keltirish; transport vositasini olib qochish; giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallash; bezorilik uchun jinoiyl javobgarlikka tortiladilarn.

JKning Maxsus qismida nazarda tutilgan alohida hollarda (masalan, bir qator mansabdorlik jinoyslarni, harbiyl va boshqa jinoyslarn uchun) jinoyslarn sodir etilgunga qadar o'n sakkiz yoshga to'lgan shaxslarn javobgarlikka tortiladilarn.

Agar voyaga yetmagan 14-16 yoshga to'lgan, ammo ruhiyl kasalligi sababli o'z harakatlarning ahamiyatini anglay olmagan yoki harakatlarni boshqara olmagan bo'lsa, u javobgarlikka tortilmaydi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, jinoyslarn huquqida voyaga yetmagan shaxsni jinoyslarn subyekti sifatida e'tirof etish, avvalo, uning yoshi va aqliyl holati bilan uzviyl bog'liqdir. Jinoiyl javobgarlik yoshi qonun chiqaruvchi tomonidan ixtiyoriyl tarzda emas, balki shaxsning o'z harakatlarning ahamiyatini anglash va ularni boshqarish qobiliyatining shakllanish darajasidan kelib chiqib belgilanadi. Shu ma'noda, yosh jinoyslarn subyektlarning majburiyl belgilaridan biri sifatida huquqiyl, tibbiyl-biologik va ijtimoiyl-psixologik mezonlarn majmuida baholanishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi jinoyslarn qonunchiligida jinoiyl javobgarlik yoshining umumiy va maxsus chegaralar asosida differentsiatsiya qilinishi voyaga yetmagan shaxslarni javobgarlikka tortishda individual yondashuvni ta'minlashga xizmat qiladi. Ayni paytda, 14-16 yoshli shaxslarning barchasi ham bir xil darajada onglilikka ega emasligi, ularning ijtimoiylashuv darajasi, hayotiy tajribasi va ruhiyl rivojlanishi turlicha bo'lishi mumkinligi amaliyotda inobatga olinishi zarur.

Qiyosiy-huquqiyl tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, xorijiy davlatlarn qonunchiligida ham jinoiyl javobgarlik yoshini belgilashda voyaga yetmagan shaxsning o'z qilmishining ijtimoiyl xavfliligini anglash qobiliyatiga alohida e'tibor qaratiladi. Bu esa jinoyslarn subyektlarn aniqlashda faqat kalendar yosh bilan cheklanib qolmasdan, shaxsning aqliyl va ijtimoiyl rivojlanish darajasini kompleks baholash zarurligini tasdiqlaydi.

Shu munosabat bilan, voyaga yetmaganlarni jinoiyl javobgarlikka tortishda sud-tergov amaliyotida psixologik va psixiatriya ekspertizalarning ahamiyatini oshirish, jinoiyl javobgarlik

yoshini belgilashga doir normalarni takomillashtirish hamda jazo tayinlashda tarbiyaviy ta'sir choralari kengroq qo'llash maqsadga muvofiq, deb hisoblanadi.

IQTIBOSLAR/CHOCKI/REFERENCES:

1. Кудрявцев В.Н., Келина С.Г. Уголовный закон. Опыт теоретического моделирования. М., 1987, -С. 65.
2. Кудрявцев В.Н., Келина С.Г. Уголовный закон. Опыт теоретического моделирования. М., 1987, 68-бет.
3. Постановления Пленума Верховного Суда СССР от 3 декабря 1976 г. // Бюллетен Верховного Суда СССР. 1977, №1, с. 19.
4. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. Umumiy qism/M.Rustambayev.– Toshkent: "Yuridik adabiyotlar publish", 2024.–152 b. (lotin alifbosida yozing).
5. Комментарий к Уголовному кодексу Российской Федерации. // Постатейный комментарий к УК РФ \ 2025-2024-2023 год \ Акты, образцы, формы, договоры \ КонсультантПлюс
6. Комментарий к Уголовному кодексу РСФСР / [Анашкин Г.З., Ахметшин Х.М., Бородин С.В. и др.]; Отв. ред. Ю.Д. Северин. — 2-е изд., доп. и перераб.. — М. : Юрид. лит., 1984. — с. 22.
7. To'rabaeva Z.Ya. Voyaga yetmagan shaxslarni jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish institutini takomillashtirish. Yuridik fanlari falsafa doktori ilmiy darajasi olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.: 2025.-B.28.
8. Бобнева М.И. Социальные нормы и регуляция поведения. М., 1978, с. 55.
9. Бобнева М.И. Социальные нормы и регуляция поведения. М., 58-бет.
10. Руководство по судебной психиатрии. М., 1977, с. 380-381.
11. Карпец И.И. Наказание: Социальные, правовые и криминологические проблемы. М., 1973, с. 212.
12. Курбатова Г.И. Социально-физиопсихологические факторы формирования личности несовершеннолетнего правонарушителя // Вопросы повышения эффективности уголовного законодательства в современных условиях. Свердловск, 1979, с. 80.
13. Руководство по судебной психиатрии. М., 1977, с. 290.
14. Курбатова Г.И. Социально-физиопсихологические факторы формирования личности несовершеннолетнего правонарушителя // Вопросы повышения эффективности уголовного законодательства в современных условиях. Свердловск, 1979, с. 83.
15. Российское уголовное право. Общая часть. Учебник. Изд-во «Спарк». М., 2017, с. 121.
16. Российское уголовное право. Общая часть. Учебник. Изд-во «Спарк». М., 2017, с. 122.
17. Уголовное право. Част общая. М., 1948, с. 327-328.
18. Уголовное право Российской Федерации. Общая част. «Юристь», М., 2016, с. 211.
19. Семендеров Ф.Ж. Жинает хугуги. Умуми хиссе. Дерслик. Бакў Университети нешрияти. Бакў, 1999, с. 726.
20. Turk cesa kanunu ve ilgili mevzuat. Filiz kitab evi. Istanbul, 1992, s. 24-26.
22. Курс советского уголовного права. ЛГУ. Т. I. 1968. — С. 368.
23. СУ УзССР, 1931. - №33, ст. 279.
24. Загородников Н.И. О построении будущего уголовного законодательства, как единой системы // Советское государство и право. — 1958. - №8.

YURIST AXBOROTNOMASI

1-SON

ВЕСТНИК ЮРИСТА

HOMEPI 1

LAWYER HERALD

ISSUE 1

ISSN 2181-9416

2026-YIL